

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI

Murodova Dilnoza Choriyevna
Toshkent moliya instituti doktoranti, PhD

Annotatsiya: Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking maqsad va vazifalari, institutsional tuzilishi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Pul-kredit siyosati mantiqan yangi tamoyillar asosida yuritiladigan bo'ldi. Xususan, mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi Markaziy bank faoliyatining ustuvor maqsadi sifatida belgilandi.

Kalit so'zlar: Pul-kredit siyosati, inflyatsiya, depozit bazasi, davlat byudjeti, qayta moliyalash stavkasi, ochiq bozor siyosati, majburiy zaxira siyosati.

Аннотация: В рамках структурных преобразований, реализуемых на новом этапе экономического развития нашей страны, коренным образом пересмотрены цели и задачи Центрального банка Республики Узбекистан, институциональная структура. Монетарная политика логично проводилась на основе новых принципов. В частности, задача обеспечения стабильности внутренних цен в стране была определена в качестве приоритетной цели Центрального банка.

Ключевые слова: Денежно-кредитная политика, инфляция, депозитная база, государственный бюджет, ставка рефинансирования, политика открытого рынка, политика обязательных резервов.

Abstract: Within the framework of the structural reforms implemented at the new stage of the economic development of our country, the goals and tasks of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, and the institutional structure have been fundamentally revised. Monetary policy was logically conducted on the basis of new principles. In particular, the task of ensuring the stability of domestic prices in the country was defined as a priority goal of the Central Bank.

Key words: Monetary policy, inflation, deposit base, government budget, refinancing rate, open market policy, reserve requirement policy.

DOLZARBLIGI

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki asosiy pul-kredit instrumenti sifatida qayta moliyalash siyosati, majburiy zaxira siyosati va ochiq bozor siyosatidan foydalanadi. Bunda, Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirish orqali iqtisodiyotdagи depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga, moliyaviy aktivlar narxiga va makroiqtisodiy kutilmalarga ta'sir ko'rsatadi. 2022-yilda Markaziy bankning asosiy stavkasi 3 marotaba o'zgartirildi va ushbu o'zgarishlar tezkor ravishda pul bozoridagi foiz stavkalarida o'z aksini topa boshladi [1]. Pul bozoridagi foiz stavkalarining depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga o'tishida ham ijobjiy tendensiya kuzatilayotgan bo'lib, islohotlarning navbatdagi bosqichida foiz kanalining aynan ushbu qismini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Pul bozorida shakklangan foiz stavkalaridagi o'zgarishlarning depozitlar narxiga o'tishi ma'lum muddatni taqozo etadi. Banklarning depozit bazasi nisbatan pastroq (depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi 40 foiz atrofida) hisoblanib, birinchi navbatda, bankdan tashqari jamg'armalarni bank tizimiga samarali jalb etish va shu orqali depozit bazasini oshirish maqsad qilingan. Inflyatsiya darajasining pasayib borishi va nisbatan barqaror almashuv kursi sharoitida banklar tomonidan taklif etilayotgan joriy foiz stavkalari, shu jumladan, milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini jozibador hisoblanib, jamg'armalar hajmining keskin o'sib borishiga xizmat qilmoqda. Kelgusi yillarda ham milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha real ijobjiy foiz stavkalarining ta'minlanishi hisobiga jamg'armalarning bank tizimiga qaytish jarayonining davom etishi va depozitlar dollarlashuvining pasayib borishi kutilmoqda. Bu, o'z navbatida, pul-kredit siyosati foiz kanali ta'sirchilik darajasining oshganligini ko'rsatadi. Depozit bazasining o'sib borishi bilan ular bo'yicha foiz stavkalarining pul bozoridagi foiz stavkalariga yaqinlashishi va o'xshash dinamikaga ega bo'lishi kuzatiladi. Buning natijasida,



foiz marjasni o'zgarishsiz saqlanib qolgan holda kreditlar bo'yicha foiz stavkalari o'zgarishida ham depozit foiz stavkalariga o'xshash tendensiyaga ega bo'ladi. Uzoq yillarda davomida yig'ilib kelgan kreditlarga bo'lgan yuqori talab so'nggi 4–5 yilda yuzaga chiqib, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari hajmining keskin o'sishida o'z aksini topdi va so'nggi ikki yilda biroz sekinlashgan bo'lsada, chakana kreditlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholiga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha nisbatan yuqori foiz stavkalarining shakllanishiga sabab bo'lmoxda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

K. R. Makkonnell, S. Bryu va K. Eklund inflyatsiyani iqtisodiyotda baholarning o'rtacha ko'tarilishi sifatida^[2] aytishsa. P. Xeyni yesa pulning sotib olish qobiliyatining pasayishi yoki qiymatining yo'qolishi yekanligini ta'kidlaydi^[3]. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan, professor Sh. Abdullayeva inflyatsiyaning iqtisodiy mohiyatiiga: "Inflyatsiya so'zining iqtisodiy mohiyati –muomalada mayjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi" deya ta'rif beradi^[4].

L. Katao va M. Terronza 107 mamlakat bo'yicha 1960 yildan 2001-yilgacha bo'lgan davrda inflyatsiya va byudjet defitsiti o'rtasidagi bog'liqlik masalasini tadqiq qilganlar va bu borada mayjud bo'lgan tendensiyalarni baholash imkonini beradigan muhim xulosalarni shakllantirganlar. Ana shunday xulosalardan biri, inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsitining qisqarish sur'ati bilan inflyatsiya darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mayjud, degan xulosa hisoblanadi. Ushbu xulosa aniq hisob-kitoblarga asoslangan: inflyatsiyaning o'rtacha yillik darajasi 50 foizga yaqin bo'lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsitining YalMdagi salmog'ini 1 foizli punktga qisqarishi inflyatsiyaning 8,75 foizli punktga pasayishiga olib keladi. Bunda Davlat byudjeti defitsiti va inflyatsiya o'rtasidagi sezilarli statistik bog'liqlik nafaqat yuqori inflyatsiya sharoitida, balki oqilona inflyatsiya sharoitida ham kuzatildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rivojlangan sanoat mamlakatlarda va inflyatsiya darajasi juda past bo'lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsiti va inflyatsiya o'rtasidagi sezilarli bog'liqlik tadqiqot jarayonida kuzatilmagan. Bu esa, L. Katao va M. Terronzalarning fikriga ko'ra, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- hukumatga nisbatan ishonchning yuqori ekanligi;
- markaziy banklar mustaqilligining institutsional jihatdan himoyalanganligi;
- moliya tizimining rivojlanganligi^[5].

G. Xess va Ch. Morrislarning fikriga ko'ra, baholarning sezilarsiz darajadagi o'sishi ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi^[6]. Ularning fikriga ko'ra, baholarning unchalik sezilarli darajada bo'Imagan o'sishi ham inflyatsiya dinamikasidagi noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari kreditlari foiz stavkasining o'sishiga olib keladi. Chunki kreditlarning foiz stavkasi o'zida nafaqat kutilayotgan inflyatsiyani, balki risk uchun qo'shimcha ustamani ham aks ettiradi. Natijada, mamlakatdagi iqtisodiy faollikka va aholining turmush darajasiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir yuzaga keladi.

O'tkazilgan tadqiqot metodologiyasi: 2021-yilda Markaziy bank operatsiyalarining foiz koridori ±2 foiz bandgacha kengaytirildi va joriy 14 foizlik asosiy stavka sharoitida overnayt REPO va SVOP operatsiyalari 16 foizdan (asosiy stavka+ 2 foiz) va overnayt depozit operatsiyalari 12 foizdan (asosiy stavka – 2 foiz) amalga oshirilmoqda. Foiz koridorining kengaytirilishi banklarning pul bozoridagi faolligining pastligi (qatnashuvchi banklar soni va kunlik amaliyotlar hajmining kamligi) va natijada banklar o'rtasida umumiy likvidlikning qayta taqsimlanish samaradorligining yetarli darajada emasligi bilan izohlanadi. Xalqaro amaliyotda asosiy stavka darajasi nisbatan yuqori bo'lgan davlatlarda foiz koridorining kengroq bo'lishi hamda inflyatsiya darajasining muvozanatlashishi va asosiy stavkaning pasayishi bilan foiz koridorining torayib borishi kuzatiladi. Kengroq foiz koridorining joriy etilishi esa, banklarning pul bozoridagi operatsiyalarga bo'lgan qiziqishini oshirish (4 foiz bandlik tafovut) va shu orqali pul bozorida faol ishtirot etishini ta'minlash hamda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalariga bo'lgan talabini qisqartirishga qaratilgan.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida monetizatsiya darajasi, inflyatsiya va YalMning o'sish sur'ati^[7]

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
Iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, %	20,5	17,8	18,5	19,6	21,2
Inflyatsiya darajasi, %	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3
YalMning o'sish sur'ati, %	5,5	6,0	2,0	7,4	5,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, O'zbekiston iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ammo, tahsil qilingan davr mobaynida mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi past darajada qolgan. Respublikamizda inflyatsiya darajasi 2018–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan, ammo, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. YalMning o'sish sur'ati 2022-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.



2-jadval: O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi va tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o'ratcha yillik foiz stavkasi, foizda^[8]

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
Inflyatsiya darajasi	14,3	15,1	11,1	10,0	12,3
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	16,0	16,0	14,0	14,0	15,0
Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasi	20,5	24,2	22,3	20,8	21,9

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2018–2022-yillarda respublikamizda inflyatsiya darajasini yuqori bo'lganligi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining foiz stavkalarini yuqori bo'lishiga olib kelgan. O'z navbatida, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi kompaniyalar va firmalarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga to'sqinlik qiladi. Shunisi ahamiyatli, transaksion depozitlar tijorat banklari uchun resurs manbai hisoblanmaydi, muddatli va jamg'arma depozitlar tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi. Buning ustiga, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, faqat tijorat banklari depozitlar jalb qilish huquqiga ega^[9].

3-jadval: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o'ratcha yillik foiz stavkasi, foizda^[10]

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
Milliy valyutadagi kreditlarning o'ratcha yillik foiz stavkasi	16,2	21,1	23,7	22,3	20,8
Chet el valyutasidagi kreditlarning o'ratcha yillik foiz stavkasi	5,8	5,8	7,1	6,9	6,7

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rindaniki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'ratcha yillik foiz stavkasi 2017–2020-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu foiz stavkalarining darajasi 2019–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda inflyatsiya darajasini va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasayganligi bilan izohlanadi. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning o'ratcha yillik foiz stavkasi 2019–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobji holat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga inflyatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish yo'li bilan 2020-yilning 1-yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklandi. 2021-yilda inflyatsiya bo'yicha belgilangan maqsadi ko'rsatkichga erishildi, ya'ni inflyatsiyaning yillik darajasi 9,98 foizni tashkil etdi. Ammo, 2022-yilda inflyatsiya bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichga erishilmadi. pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023–2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida 2022-yil uchun inflyatsiyaning yillik darajasini 8–9 % darajasida bo'lishi proqnoz qilingan edi^[11]. Biroq, 2022-yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 12,3 foizni tashkil etdi.

2022-yilda respublikamizda inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichga erishilmaganligining asosiy sabablar quydagilardir:

1. Asosiy oziq-ovqat va import tovarlari narxlarining yuqori o'sishi bazaviy inflyatsiya darajasini keskin oshishiga olib keldi. 2022-yilda bazaviy inflyatsiya darajasi 13,8 foizni tashkil etdi.
2. Iqtisodiyotdagagi yuqori inflyatsion jarayonlar, yoqilg'i-energiya resurslari, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va import xomashyosi narxlarining oshishi 2022-yilda inflyatsion kutilmalarning salbiy bo'lishiga olib keldi.
3. Pul massasining o'sish sur'atini yuqori bo'ldi. 2022-yilda pul massasining yillik o'sish sur'ati respublikamizda 30,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023–2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida asosiy pul-kredit operatsiyalarini auksionlardan to'liq qoplanadigan o'zgarmas stavkali ("fixed rate full allotment") operatsiyalarga o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, bunda joriy depozit auksionlari o'rniga cheklanmagan hajmda amalga oshiriladigan muddati 14 kungacha bo'lgan depozit operatsiyalariga o'tilishi pul bozoridagi foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan tebranuvchanligining pasayishiga, asosiy stavka ta'sirining va transmission mexanizm samaradorligining oshishiga xizmat qiladi, degan xulosa qilingan.



ILMIY YANGILIGI

Ekspansionistik monetar siyosat tijorat banklarining kredit ekspansiyasini rag'batlantiradi va kreditlarning nominal yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasini oshirish imkonini beradi. Bu esa, pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash imkonini bergen holda, iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirish uchun birinchidan, Markaziy bank majburiy zaxira talabnomasi summasini tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobrarqamlarida qoldirish yo'li bilan banklarning kreditlash imkoniyatini va likvidliligin oshirish lozim; ikkinchidan, Markaziy bankning diskont va lombard kreditlari berish amaliyotini yo'nga qo'yish bilan tijorat banklariga beriladigan qayta moliyalash kreditlari hajmini oshirish zarur; uchinchidan, to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan tijorat banklari va kompaniyalarning depozit sertifikatlari va obligatsiyalarini Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarining obyektlariga aylantirgan holda, to'g'ri REPO va teskari REPO operatsiyalarining hajmini oshirish kerak; to'rtinchidan, milliy ssuda kaptallari bozorini shakllantirish asnosida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kreditlari bozor bahosining past va barqaror darajasini ta'minlashga erishish.

XULOSA VA NATIJA

Mamlakatda tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni oshirish lozim:

Banklar faoliyatini tartibga solish tizimining tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rag'batlantirishdagi rolini oshirish uchun, birinchidan, Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati bilan majburiy zaxira siyosati o'rtafiga monandlikni ta'minlash lozim; ikkinchidan, ekspansionistik mazmundagi pul-kredit siyosatini amalga oshirish kerak.

Respublika Markaziy bankingning diskont kreditlari berish amaliyotini yo'nga qo'yish va ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish lozim. Taraqqiy etgan mamlakatlarda Markaziy banklarning diskont kreditlari, ya'ni tijorat banklariga Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan berilgan kreditlar banklar faoliyatida yuzaga kelgan balanslashmagan likvidlilik muammosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

TAVSIYALAR

Tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida xorijdan jalb qilingan kreditlarning salmog'ini pasaytirish maqsadida, birinchidan, ichki manbalar hisobidan shakllantiriladigan xorijiy valyutadagi depozitlarga to'lanadigan foizlarning stavkalarini barqarorligini ta'minlash lozim; ikkinchidan, aksiyalarning investitsion jozibadorligini ta'minlash hisobiga emission daromad hajmini oshirish va ikkinchi darajali kapital miqdorini ko'paytirish imkoniyatlarini kengaytirish (subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining emissiya hajmini oshirish, konsolidatsiyalashgan sho"ba kompaniyalarga qilinadigan investitsiyalar miqdorini ko'paytirish) yo'li bilan reguliyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ini oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.cbu.uz sayti (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki)
2. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В. 2 т.: Пер. с англ. Т. И. М.: Республика, 1992. С. 163.
3. Хейне П. Экономической образ мышления. М., 1991. С.484.
4. Abdullayeva Sh. Z. Pul, kredit va banklar. Т. : Iqtisod – Moliya, 2007. 71 б.
5. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation // Working Paper. 65. IMF. – R. 63 – 67.
6. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71–88.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking statistik ma'lumotlari asosia tuzilgan.
8. www.cbu.uz sayti (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki) tomonidan tuzilgan.
9. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son.
10. www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkalari; Chet el valyutasidagi kreditlarning foiz stavkalari).
11. Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023–2024-yillarda davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.